

MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIKARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUVLAR

Ismoilov Alisher Jobir o‘g‘li

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklar ilmiy asosda tahlil qilinadi va ushbu jarayonni o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy nazariy yondashuvlar yoritiladi. Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning sabablari, ularning oqibatlari hamda ushbu holatni bartaraf etishga qaratilgan samarali strategiyalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, iqtisodiy geografiya, institutsional iqtisodiyot va regional siyosat nuqtai nazaridan turli nazariyalar tahlil qilinib, ularning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari baholanadi. Maqolada mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, davlat va hududiy boshqaruvning o‘rni hamda tizimli islohotlarning ahamiyati haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Tadqiqot natijalari mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta‘minlash va mavjud nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik, nazariy yondashuvlar, iqtisodiy geografiya, regional siyosat, institutsional iqtisodiyot, tengsizlik, barqaror rivojlanish, davlat boshqaruvi, hududiy islohotlar.

Аннотация

В данной статье дается научный анализ диспропорций в социально-экономическом развитии регионов и выделяются основные теоретические подходы, используемые при изучении этого процесса. Рассматриваются причины диспропорций в региональном развитии, их последствия и эффективные стратегии устранения данной ситуации. Также анализируются различные теории с позиции экономической географии, институциональной экономики и региональной политики, оцениваются возможности их практического применения. В статье приводится подробная информация о современных подходах к сокращению регионального неравенства, роли государственного и территориального управления, значении системных реформ. Результаты исследования включают научные и практические рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого развития регионов и сокращение существующих диспропорций.

Ключевые слова: региональное развитие, социально-экономические диспропорции, теоретические подходы, экономическая география, региональная политика, институциональная экономика, неравенство, устойчивое развитие, государственное управление, территориальные реформы.

Abstract

This article provides a scientific analysis of the disparities in the socio-economic development of regions and highlights the main theoretical approaches used in the study of this process. The causes of disparities in regional development, their

consequences, and effective strategies for eliminating this situation are considered. Also, various theories are analyzed from the perspective of economic geography, institutional economics, and regional policy, and their possibilities for practical application are assessed. The article provides detailed information on modern approaches to reducing regional inequality, the role of state and territorial governance, and the importance of systemic reforms. The results of the study include scientific and practical recommendations aimed at ensuring the sustainable development of regions and reducing existing disparities.

Keywords: regional development, socio-economic disparities, theoretical approaches, economic geography, regional policy, institutional economics, inequality, sustainable development, public administration, territorial reforms.

KIRISH

Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar zamonaviy iqtisodiy rivojlanish nazariyasining markaziy muammolaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu hodisa resurslar, investitsiyalar, infratuzilma, bandlik va ijtimoiy xizmatlarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi natijasida yuzaga kelib, uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishning izchilligi va hududiy inklyuzivlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar nafaqat har bir davlatning ichki barqaror rivojlanishiga, balki global miqyosda iqtisodiy va ijtimoiy izchillikka ham jiddiy ta'sir etadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, xususan, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Jahon Banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, mintaqaviy tengsizliklar iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatining cheklanishi, ijtimoiy xizmatlar sifati va bandlik darajasidagi keskin tafovutlarga olib keladi. UNDPning 2023-yilgi "Inson taraqqiyoti hisobotida" qayd etilishicha, aynan mintaqaviy nomutanosibliklar inson salohiyatining to'liq ro'yobga chiqishiga to'siq bo'luvchi muhim omil sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham hududlar rivojlanish darajasidagi tafovutlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Respublikada bu borada kompleks yondashuv asosida davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Shuningdek, "O'zbekiston-2030" strategiyasida mintaqaviy tafovutlarni bartaraf etish, aholining farovonligi va xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlash asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy nomutanosibliklarni ilmiy tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini chuqur o'rganish, nazariy yondashuvlarni baholash hamda xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu maqola aynan shu maqsadni ko'zlab, mintaqaviy rivojlanishdagi tengsizliklarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi nazariy asoslarni tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy nomutanosibliklarni tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy geografiya, mintaqaviy rivojlanish nazariyalari va davlat siyosatini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalishda bir qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar

tomonidan nazariy yondashuvlar ilgari surilgan bo‘lib, ular mintaqaviy tafovutlarning kelib chiqish sabablari, dinamikasi va oqibatlarini har tomonlama yoritgan.

Masalan, mashhur iqtisodchi Pol Krugman o‘zining yangi iqtisodiy geografiya nazariyasida mintaqaviy tafovutlar markazlashuv va iqtisodiy aglomeratsiyalar natijasida vujudga kelishini asoslaydi [1]. Unga ko‘ra, ishlab chiqaruvchilarning bir hududda to‘planishi resurslardan foydalanishda afzallik bersa-da, bu uzoq muddatda chekka hududlarda iqtisodiy inqiroz va infratuzilma tanqisligiga olib kelishi mumkin [2].

Jahon Banki ekspertlari, xususan World Development Report (2009)da mintaqaviy rivojlanishdagi tafovutlarni muvozanatlash uchun davlat aralashuvi va hududiy siyosat muhim omil ekanini ta’kidlaydi [3]. Xuddi shunday, OECD tomonidan ishlab chiqilgan Territorial Review hisobotlarida har bir hududning nisbiy ustunliklari asosida diversifikatsiyalangan siyosat yuritilishi zarurligi e’tirof etiladi [4].

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Sh. Xidirov O‘zbekistonda mintaqaviy tafovutlar makroiqtisodiy o‘zgarishlar, infratuzilma va investitsiyalarning notekis taqsimlanishi bilan bog‘liq ekanligini asoslaydi [5]. I. Raximov esa regionlar iqtisodiyoti va hududlararo tengsizliklarni baholashda indikatorlar tizimini taklif etadi [6]. Shuningdek, M. Xodjayev O‘zbekiston hududlari ixtisoslashuvi va ularning ishlab chiqarish salohiyatini taqqoslamali tahlil asosida baholash lozimligini ta’kidlaydi [7].

Xalqaro ekspertlar qatorida A. Rodríguez-Pose mintaqaviy siyosatni faqat infratuzilma va investitsiyalarga emas, balki institutsional salohiyatga yo‘naltirish zarurligini ilgari suradi [8]. Shu bilan birga, UNDP ekspertlari mintaqaviy nomutanosibliklarning ijtimoiy tengsizliklar bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi [9].

Ushbu ilmiy qarashlar mintaqaviy nomutanosibliklar muammosini kompleks yondashuv asosida o‘rganish, xalqaro va milliy tajribani uyg‘unlashtirish hamda ilmiy asoslangan siyosiy yechimlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir necha ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Mazkur yondashuv kichik biznes subyektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilish imkonini berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari, shuningdek, ekspert so‘rovlari natijalari keng qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar har qanday davlatning barqaror rivojlanishiga tahdid soluvchi muhim omillardan biridir. Bu holat, ayniqsa, aholi zich joylashgan, tabiiy resurslar, infratuzilma imkoniyatlari, investitsion faollik va ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlanish darajasi o‘zgaruvchan bo‘lgan hududlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

BMT Taraqqiyot Dasturi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlar ham mintaqaviy tengsizlikka qarshi kurashishda hududiy indikatorlar asosida asosli tahlil va prognozlar ishlab chiqish zarurligini ta’kidlamoqda. Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyati misolida amalga oshirilgan quyidagi tahlillar mintaqa ichidagi tumanlar kesimida iqtisodiy faollik, bandlik, ijtimoiy xizmatlar sifati va infratuzilma ta’minoti darajalarini qiyosiy ko’rinishda yoritib, mavjud nomutanosibliklar miqyosini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa, o’z navbatida, maqsadli va hududiy differensial yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi.

1-jadvalda Namangan viloyati tumanlari bo’yicha asosiy iqtisodiy ko’rsatkichlar – aholi soni, yalpi hududiy mahsulot (YAIM), bandlik darajasi va ishsizlik ko’rsatkichlari keltirilgan. Namangan shahri barcha asosiy indikatorlar bo’yicha yetakchi o’rinda turib, YAIM hajmi va bandlik darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, Norin, Pop va Yangiqo’rg’on tumanlarida YAIM darajasi past, ishsizlik esa yuqori bo’lib, bu hududlarda iqtisodiy faollik pastligidan dalolat beradi. Bunday farqlar hududiy iqtisodiy salohiyatning noaniq taqsimlanganini va ish o’rinlari yaratish bo’yicha davlat siyosatida maqsadli yondashuv zarurligini ko’rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyati tumanlari bo’yicha asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili

| Tuman | Aholi soni (ming kishi) | YAIM (ming so’m/aholiga) | Bandlik darajasi (%) | Rasmiy ishsiz-lar soni (ming) |
|----------------------|-------------------------|--------------------------|----------------------|-------------------------------|
| Namangan shahri | 286,0 | 25 430 | 67,2 | 3,2 |
| Chortoq tumani | 198,5 | 14 210 | 54,8 | 4,5 |
| Pop tumani | 236,4 | 11 870 | 51,5 | 5,1 |
| Norin tumani | 178,1 | 9 580 | 49,3 | 5,6 |
| Uychi tumani | 221,7 | 12 340 | 55,1 | 4,1 |
| Yangiqo’rg’on tumani | 209,6 | 10 290 | 50,6 | 4,9 |

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi 2024-yil hisobotlari asosida shakllantirildi.

2-jadval esa ta’lim va sog’liqni saqlash sohalarida ham hududlararo tafovutlar mavjudligini tasdiqlaydi. Xususan, Norin va Pop tumanlarida 1 nafar shifokorga to’g’ri keladigan aholining yuqoriligi sog’liqni saqlash xizmatlariga bo’lgan ehtiyojning to’liq qondirilmayotganidan dalolat beradi.

O’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi nisbatning yuqoriligi, shuningdek, 100 nafar o’quvchiga to’g’ri keladigan kompyuterlar sonining kamligi hududlar o’rtasidagi raqamli tafovutlar mavjudligini va sifatli ta’lim uchun yetarli sharoit yaratilmaganini ko’rsatmoqda. Bu esa raqamli iqtisodiyotga o’tish jarayonida ham hududlararo tengsizlik mavjudligini isbotlaydi (2-jadval).

2-jadval
Namangan viloyati hududiy ta'lim va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari

| Tuman | 1 ta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni | 1 ta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni | 100 o'quvchiga kompyuterlar soni |
|----------------------|--|--|----------------------------------|
| Namangan shahri | 310 | 18 | 14,2 |
| Chortoq tumani | 550 | 22 | 7,6 |
| Pop tumani | 690 | 24 | 6,1 |
| Norin tumani | 740 | 26 | 5,2 |
| Uychi tumani | 590 | 21 | 7,1 |
| Yangiqo'rg'on tumani | 680 | 23 | 6,4 |

Manba: Namangan viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi va bo'limlarining 2023-yil hisobotlari asosida shakllantirildi.

Namangan viloyati tumanlarida ta'lim va sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari hududiy ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishda asosiy determinant sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizimlar inson kapitalining shakllanishi, raqobatbardosh mehnat bozorini yaratish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda bevosita ta'sir kuchiga ega.

Yuqori sifatli ta'lim — zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtira oladigan malakali ishchi kuchini tayyorlash imkonini bersa, sog'liqni saqlash tizimining rivojlanganligi — mehnat resurslarining sog'lig'i va barqarorligini ta'minlaydi. Ayniqsa, chekka hududlarda mazkur tizimlarga yetarli e'tibor berilmagani mavjud nomutanosibliklarni yanada chuqurlashtiradi.

Shu bois, mintaqaviy taraqqiyotda ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarni ko'paytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda kadrlar taqsimotini optimallashtirish zarur. Aholi zichligi yuqori bo'lgan, biroq ijtimoiy xizmatlar sifati past bo'lgan hududlar uchun differensial yondashuv asosida byudjet resurslarini taqsimlash, mahalliy darajadagi monitoring tizimlarini joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida xizmatlar sifatini yaxshilash — nomutanosibliklarni yumshatish va hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tumanlar kesimida infratuzilma, ichimlik suvi va raqamli xizmatlar bilan ta'minlanganlik, shuningdek investitsiyalar hajmi ham yirik farqlarni ko'rsatadi. Namangan shahri va unga yaqin tumanlar yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lsa-da, chekka tumanlarda infratuzilma va investitsiya oqimi yetarli darajada emas. Ayniqsa, tashqi investitsiyalar oqimi Norin, Pop va Yangiqo'rg'on tumanlarida nisbatan past bo'lib, bu hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining sust rivojlanganligidan dalolat beradi. Raqamli xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi ham viloyat markazidan uzoqlashgan sari sezilarli ravishda kamaymoqda (3-jadval).

3-jadval.
Namangan viloyati tumanlarida infratuzilma va investitsiyalar

| Tuman | Obodonlashtirilgan yo'llar uzunligi (km/1000 aholi) | Ichimlik suvi bilan qamrov (%) | Tashqi investitsiyalar (mln so'm) | Raqamli xizmatlar bilan qamrov (%) |
|----------------------|---|--------------------------------|-----------------------------------|------------------------------------|
| Namangan shahri | 2,8 | 98,2 | 420 000 | 92,1 |
| Chortoq tumani | 1,7 | 79,4 | 110 000 | 64,3 |
| Pop tumani | 1,2 | 74,5 | 95 000 | 59,7 |
| Norin tumani | 0,9 | 69,3 | 83 000 | 56,2 |
| Uychi tumani | 1,4 | 76,1 | 101 000 | 60,8 |
| Yangiqo'rg'on tumani | 1,1 | 72,0 | 89 000 | 58,0 |

Manba: Namangan viloyati investitsiyalar va arxitektura boshqarmasining 2023-yil hisobotlari asosida shakllantirildi.

Umuman olganda, ushbu tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyatida ichki hududiy nomutanosibliklar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma, xizmatlar sifati, bandlik imkoniyatlari va investitsion faollik bo'yicha keskin tafovutlarda namoyon bo'lmoqda. Bu esa hududlarni rivojlantirish siyosatida yagona yondashuvdan voz kechib, har bir hududning ixtisoslashuvi, resurs salohiyati va ijtimoiy ehtiyojlariga asoslangan differensial strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar chuqur va tizimli xarakterga ega bo'lib, ularning asosiy sabablari sifatida ishlab chiqarish infratuzilmasining notekis rivojlanishi, bandlik imkoniyatlarining cheklangani, ijtimoiy xizmatlar sifati va hajmidagi farqlar, shuningdek investitsion muhitning noaniqligi aniqlanmoqda.

Hududlarni rivojlantirishda differensial yondashuv zarur. Ya'ni, har bir tumanning mavjud resurslari, demografik xususiyatlari va iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda mahalliy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish lozim.

Chekka va nisbatan kam rivojlangan tumanlar (Norin, Pop, Yangiqo'rg'on) uchun maxsus iqtisodiy rag'batlantirish zonalarini tashkil etish, ularga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va investitsiya grantlari taqdim etish orqali investorlarni jalb qilish samarali bo'lishi mumkin.

Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimidagi hududiy tengsizlikni bartaraf etish maqsadida aholiga nisbatan kadrlar taqsimotini optimallashtirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va masofaviy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Infratuzilma va raqamli xizmatlar bilan ta'minlanishni yaxshilash uchun davlat-xususiy sheriklik asosida internet tarmoqlari, avtomobil yo'llari, ichimlik suvi va energiya tizimlarini yangilash bo'yicha mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

Statistik monitoring va tahlil mexanizmlarini takomillashtirish orqali hududlar rivojlanishini muntazam baholab borish hamda aniqlangan nomutanosibliklar bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish imkoniyati yaratiladi. Bu borada mahalliy hokimiyatlar faoliyati samaradorligiga indikatorlar asosida baho berish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hududlararo integratsiyani kuchaytirish maqsadida transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat kooperatsiyasi va mehnat resurslari mobilligini rag'batlantirish orqali ichki bozor integratsiyasini chuqurlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Krugman, P. (1991). Increasing returns and economic geography. *Journal of Political Economy*, 99(3), 483–499.
2. Krugman, P. (1998). Space: The final frontier. *Journal of Economic Perspectives*, 12(2), 161–174.
3. World Bank. (2009). *World Development Report: Reshaping Economic Geography*. Washington, DC: World Bank.
4. OECD. (2016). *OECD Territorial Reviews: Regional Policy for More Inclusive Growth*. Paris: OECD Publishing.
5. Xidirov, Sh. (2020). Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklar va ularni kamaytirish yo'llari. Toshkent: Iqtisodiyot.
6. Raximov, I. (2019). Hududlararo tafovutlarni baholashning statistik usullari. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, №2.
7. Xodjayev, M. (2021). O'zbekiston mintaqalarining ixtisoslashuv omillari va ularni optimallashtirish yo'llari. Monografiya. Toshkent.
8. Rodríguez-Pose, A. (2013). Do institutions matter for regional development?. *Regional Studies*, 47(7), 1034–1047.
9. UNDP. (2023). *Human Development Report*. New York: United Nations Development Programme.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**